“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 04, ISSUE 07, 2026. JULY
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

SHOIR G‘URBAT XO‘QANDIY IJODINING JANRLAR KO‘LAMI

Askaraliyev Rasulxon Axatjon o‘g‘li
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdulloh Maxdum Kaimberdi o‘g‘li G‘urbat Xo‘qandiy ijodi hamda undagi turli janrlarda yozilgan yozg‘ichlar haqida so‘z boradi va shoir ijodining o‘rganilish manbalari tarkibidan o‘rin olgan turli janrlardagi she’rlardan parchalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *G‘urbat Xo‘qandiy, Qo‘qon adabiy muhiti, devon, g‘azal, muhammas, marsiya, ruboiy, chorbayt, adabiy meros, adabiyotshunoslik, tahlil, she’riy san’atlar, husni ta’lil, talmeh, tamsil, tashxis, tanosub, ananaviy, bayt, misra.*

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, adibning o‘z qo‘li bilan bitgan bir devoni bo‘lib, u kundalik sifatida yuritib borilgan. Umrining oxirigacha bo‘lgan davrdagi she’rlari bu devondan o‘rin olgan. Yozg‘ichlarini ushbu kundalikka muntazam yig‘ib borgan. Shoir shikasta xatida she’r bitgan. Kundalik to‘liq devon holida shoir tamonidan shakllantirilmagan bo‘lsa ham unga G‘urbat devoni sifatida qaraladi. G‘urbat she’rlaridan devon tuzgan bo‘lib adadi 10 ming misraga yaqin. Unga 442 g‘azal, 25 muxammas, 12 ruboiy, 7 murabba’, 3 marsiya, 1 ta’rix va 2 chorbayt kirgan. “Devoni G‘urbat” qo‘lyozmasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi (inv.№10067).

Shoir muhamms janrida ham salmoqli ijod qilgan. G‘urbat muhammaslarining ba’zilari marsiya tarzida turli shaxslarga atab yozilgan. Sharq adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida vafot etgan insonning xotirasiga bag‘ishlab yoziladigan asarlar marsiya deyilgan. quyidagi she’r shoir devonining 163-a sahifasida, 325-betida, berilgan. Muxammas marsiya tarzida bitilib ananaviy 9 baytdab iborat. Sof turkiycha “erding o‘g‘lonim” so‘zi radif sifatida olingan. Ushbu muxammas shoir qo‘lyozmasidan olinganligi bilan ham ahamiyatli.

Muxammasi marsiyayi G‘urbat

Hayoti jovidon sarvari suzon erding o‘g‘lonim,

Majol yo‘q tanimga quti jon erding o‘g‘lonim,
Shabiston kulba ichra mohi tobon erding o‘g‘lonim,
Desam lazzat yuzidin obi hayvon erding o‘g‘lonim,
G‘ami ayyub cheksam sabri somon erding o‘g‘lonim.

G‘urbat ijod qilgan yana bir adabiy janr ruboiy bo‘lib, shoir turkiy hamda fors-tojik tillarida bir qancha ruboiylar bitgan. Shoir devonidan 12 ta ruboiy o‘rin egallagan. Ruboiylari asosan ilohiy ishqni tarannum etuvchi va ijtimoy harakterdagi didaktik mavzularda bitilgan. Musulmonchilik borasidagi o‘z qarashlarini ham ruboiylarida ko‘rishimiz mumkin. Quyida shunday diniy ruhdagi ruboiysini ilova qilamiz.

Ruboiylar
G‘urbat hamisha dardi alamda,
Butxona ichra ko‘ngul sanamda,
Samo qismatidin jon berardim man,
Vaqti ziyorat hokivarimda.

Xulosa

Yuqorida keltirib o‘tilgan lirik janrlar asrlar mobaynida mumtoz she’riyatimizning asosiy ko‘lamini tashkil etib kelmoqda. Shoir G‘urbat ham barcha ijodkorlar singari mumtoz adaniyotning turli janrlarida ijod qildi. She’riyatining asosiy qismini g‘azallar tashkil etsa-da, u turli kichik janrlarda ham ijod qildi. Jumladan, muxammas, marsiya, ruboiy, murabba, chorbayt, tarix kabi janrlar bilan ham ijodini boyitib bordi. Har qanday ijodkor uchun turli janrlarda qalam tebratish uning poetik mahoratining nechoqlik yuqori ekanligini ko‘rsatib beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib hizmat qiladi.

Shoir ijodidagi janrlar kesimining rang-barangligi, avvalo, mahorat belgisidir. Shy bilan birga she’r ilmidan nechog‘lik xabardor ekanigidan ham dalolat beradi. Turli janrlar o‘zlarining xarakter-xususiyatlari bilan shoirga ifodalamoqchi bo‘lgan fikrini yana ham aniqroq ifodalash imkonini beradi. Kichik ammo sermazmun baytlar hosil qilish uchun butun boshli g‘azal yozish ba’zan shart bo‘lmaydi. Uning o‘rniga ruboiy orqali ham shoir o‘z fikrini ifodalashi mumkin. Ba’zan tugallanmay qolgan, ya’ni matla va maqta qismi bo‘lmagan ayrim she’rlar ham kichik janrlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

Har bir janr o‘zining yozilish uslubi, hajmi, bahri va unda ilgari surilayotgan mavzu ko‘lami bilan bir-biridan farq qilib turadi. Bunday turli janrlarda ijod qilish

esa shoirdan yuksan mahorat, aruz vazni qonun-qoidalarini yaxshi bilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Askaraliyev R. Shoir G‘urbat xo‘qandiy ijodining manbalariga doir. – Toshkent: Journal of science-innovative research in uzbekistan, 2026. –B. 114-120.

2. Po‘lotjon domullo Qayyumov. “Tazkirai Qayyumiy” 3-tom. Toshkent:1998. 31-bet.

3. Rasulxon Ahadjon o‘g‘li Aqaraliyev. “Mulla Qori Khokandi Literary Heritage: Analysis And Interpretation”. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH 2.1(2022):217-220

4. Раҳматова. Д. Муқимй издошлари(Ғурбат ва Рожий). –Тошкент: УзССР Фан нашриёти, 1978. –56 б.

5. Собрание восточных рукописей академии наук узбекской ССР 10-том. «Фан». Ташкент:1975. 79-странице.

Research Science and Innovation House